

**NAMANGAN TO‘QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/04.10.2023.T.174.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAMANGAN TO‘QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI

MUXITDINOVA JAMILAXON RUSLANOVNA

**TEXNOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARDA IJODIY-
IJTIMOIY FAOLLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK
IMKONIYATLARI**

13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan - 2024

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии
(PhD) по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
in Pedagogical sciences**

Muxitdinova Jamilaxon Ruslanovna

Texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faollikni
shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari..... 3

Muxitdinova Jamilaxon Ruslanovna

Педагогические возможности формирования творческой и социальной
активности учащихся при обучении технологии..... 25

Mukhitdinova Jamilakhon Ruslanovna

Pedagogical opportunities of formation the creative social activeness among
the learners in teaching the technology subject..... 51

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 56

**NAMANGAN TO‘QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/04.10.2023.T.174.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAMANGAN TO‘QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI

MUXITDINOVA JAMILAXON RUSLANOVNA

**TEXNOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARDA IJODIY-
IJTIMOIY FAOLLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK
IMKONIYATLARI**

13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan – 2024

Falsafa doktori PhD dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2021.1.PHD/Ped2264 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.namtsi.uz) va «Ziyonet» axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Asqarova O'g'ilxon Mamashokirovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nabidjanova Nargiza Nasimjanovna
texnika fanlari doktori, professor

Qurbonova Baxtixon Qo'chqarbayevna
pedagogika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan to'qimachilik sanoati instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/04.10.2023.T.174.01 raqamli Ilmiy Kengash asosidagi bir martalik Ilmiy Kengashning 2024 yil "24" dekabr soat 13³⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160605, Namangan shahri, Janubiy aylanma yo'l ko'cha, 17-uy. Tel.: +(998) 55-251-43-04; +(998) 55-251-43-04; e-mail: info@ntsi.uz)

Dissertatsiya bilan Namangan to'qimachilik sanoati instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 29-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160605, Namangan sh., Janubiy aylanma yo'l ko'chasi-17. Tel.: +998 55 251-43-04)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "12" dekabr kuni tarqatildi.
(2024 yil "26" avgustdagi № 22-raqamli reyestr bayonnomasi).



Q.M.Xoliqov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, texnika
fanlari doktori, professor

X.T.Bobojanov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi, texnika
fanlari doktori, dotsent

J.K.Yuldashev

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, texnika
fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon ta'lim tizimi taraqqiyotini ta'minlaydigan asosiy omil ijodiy-ijtimoiy faollik, kasbiy mahorat, zamonaviy ta'lim sharoitiga doir kompetensiyalari hamda kasbga oid qobiliyatlarining rivojlanganligi hisoblanadi. Ta'limga oid xalqaro tashkilotlar hamda dunyo mamlakatlari tomonidan 2030-yilgacha belgilangan Xalqaro Ta'lim konsepsiyasida "Bilimlarning mustahkam poydevoriga ega bo'lish, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, o'quvchilarda hamkorlik qobiliyatlari va bilishga qiziqishni shakllantirish"¹ dolzarb vazifa sifatida qayd etilgan. Bu esa, bo'lajak jamiyat a'zosi o'quvchini ijtimoiylashtirishning harakatlantiruvchi kuchi uning maqsadli faoliyati hisoblanadi va kollaborativ, ijodiy-izlanishli, hamkorlikda ishlash, muammoli ta'lim texnologiyalari asosida intellektni rivojlantirishga imkon beradigan yangicha fikrlash qobiliyatini tarkib toptirishni taqozo etadi. Shundan kelib chiqib, texnologiya mashg'ulotlarida o'quvchilarning jamiyatdagi ijtimoiylashuvi jarayonida uning individual salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga imkon beradigan ijodiy-ijtimoiy faolligini alohida tarkib toptirish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Dunyo ta'lim tizimida ijodiy-ijtimoiy faollikning asoslari o'quvchilarda yoshlikdan shakllanishi va har bir yosh davrda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi, o'quvchilarning maktabda ta'lim olish davri boshlanishi - o'sib borayotgan inson hayotidagi alohida yosh davri bo'lib, u asosan o'yin faoliyatidan o'qish faoliyatiga o'tish bilan bog'liq ekanligi ma'lum. Uning tarkibiy asoslarini belgilashlari, pedagogik imkoniyatlarini ochib berishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, o'quvchilar va oliy ta'lim talabalarida ijodiy-ijtimoiy faollikning asoslarini rivojlantirish omillari ta'sirini baholash, kreativlikka asoslangan ta'limiy faoliyatni tashkil etishning metodik tizimini takomillashtirish, kreativlikka asoslangan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Texnologiya fani mashg'ulotlarida o'quvchilarni ishlab chiqarish jarayonlariga jalb qilish orqali ularning kreativ fikrlash ko'nikmalari, innovatsion rivojlanishni ta'minlovchi kasbiy ko'nikmalari bilan birgalikda ijodiy-ijtimoiy faolliklarini takomillashtirishning zamonaviy usullari va vositalarini joriy etish kabi istiqbolli yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda izchil islohotlar natijasida yurt istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor va shijoatli yoshlarni tarbiyalash bilan bir qatorda ularda ijodiy-ijtimoiy faollikni shakllantirishning imkoniyatlarini kengaytirish zarurati mavjud. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Taraqqiyot strategiyasida "Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish

¹ Incheon declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea). – P.6.

Falsafa doktori PhD dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2021.1.PHD/Ped2264 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) ilmiy kengashning veb sahifasida (www.namtsi.uz) va «Ziynet» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Asqarova O'g'ilxon Mamashokirovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nabidjanova Nargiza Nasimjanovna
texnika fanlari doktori, professor

Qurbonova Baxtixon Qo'chqarbayevna
pedagogika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan to'qimachilik sanoati instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/04.10.2023.T.174.01 raqamli Ilmiy Kengash asosidagi bir martalik Ilmiy Kengashning 2024 yil "24" dekabr soat 13³⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160605, Namangan shahri, Janubiy aylanma yo'l ko'cha, 17-uy. Tel.: +(998) 55-251-43-04; +(998) 55-251-43-04; e-mail: info@nisi.uz)

Dissertatsiya bilan Namangan to'qimachilik sanoati instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 29-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160605, Namangan sh., Janubiy aylanma yo'l ko'chasi-17. Tel.: +998 55 251-43-04)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "12" dekabr kuni tarqatildi.
(2024 yil "26" avgustdagi № 22-raqamli reyestr bayonnomasi).



Q.M.Xollqov
Q.M.Xollqov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, texnika
fanlari doktori, professor

X.T.Bobojanov
X.T.Bobojanov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi, texnika
fanlari doktori, dotsent

J.K.Yuldashev
J.K.Yuldashev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, texnika
fanlari doktori, dotsent

jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish”² kabi vazifalar belgilangan bo‘lib, bu o‘z navbatida mazkur jarayonni tadqiqiy va tahliliy yo‘nalishga ega bo‘lgan didaktik tizim sifatida ko‘rib chiqish zaruratini izohlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022—2026 - yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022 yil 11 maydagi PF-134-son “2022—2026-yillarda xalq ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, 2022 yil 3 fevraldagi F-22-sonli “Xalq ta‘limi tizimini isloh qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoyishi hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi..

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ilmiy manbalar tahlili o‘quvchilarining ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirishning muayyan masalalari o‘z aksini topganligini ko‘rsatdi.

Ular orasida mamlakatimizda o‘quvchilarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini rivojlantirish, ijtimoiy moslashtirish texnologiyasi va ijtimoiy-pedagogik tizimni takomillashtirish kabi masalalar X.M.Tojiboyeva, M.K.Bakiyeva, G.Z.Yusupova, Z.A.Pulatova, I.A.Oxunov, B.A.Xodjayorova, N.G.Gulyamova, M.F.Ziyayeva³ kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Ta‘lim jarayonidagi ijodiy faollikning psixologik-pedagogik, metodik muammolari A.R.Xodjabayev, U.SH.Begimqulov, R.X.Djo‘rayev, J.G‘.Yo‘ldoshev, R.A.Mavlyanova, N.A.Muslimov, SH.E.Qurbanov, G.B.Yaxyoyeva, K.X.Allaberdiyeva, B.A.Supiyeva, M.S.Achilovalarning⁴ ilmiy tadqiqot ishlarida ayrim jihatlari yoritib o‘tilgan.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son “2022—2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2022 йил, 6-сон, 70-модда.

³ X.M.Тожибоева. Ўқувчи-ёшлар ижтимоий фаоллигини оширишнинг педагогик тизими. Тошкент. 2018 й
M.K.Бакиева. Бошланғич синф ўқувчи кизларида ижтимоий фаол шахс сифатларини шакллантиришнинг педагогик механизмлари. 2022; З.А.Пулатова. Ingliz tilini o‘qitish jarayonida bo‘lajak iqtisodchi talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmi. Toshkent. 2023; И.А.Охунов. Кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларда ижтимоий онгни ривожлантиришнинг педагогик тизими; Б.А.Ходжаёрова. Kreativ yondashuv asosida o‘quvchilarni ijtimoiylashtirishning pedagogik shart-sharoitlari (5-6 sinf o‘quvchilari misolida); N.G.Gulyamova. Oliy ta‘lim muassasalarida bo‘ajak menejerlar ijtimoiy faolligini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish; Ziyayeva Maxbuba Fazlidinovna. Oliy ta‘lim tizimida pedagogik neologiya asosida talabalar ijtimoiy faolligini takomillashtirish (talaba-qizlar misolida);

⁴ А.Р.Ходжабоев. Научно педагогические основы учебно-методического комплекса подготовки учителя труда. Дис. док. пед. наук. –Т.: 1992. -406 с; Бегимқулов У.Ш. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва амалиёти. Пед. ф. д.дисс. –Т.: 2007 –305 б.; Н.А.Муслимов. Касб

MDH davlatlari olimlaridan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: o'quvchi shaxsini ijodiy faolligi va ijodiy o'zini-o'zi rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari (G.S.Altshuller, V.I.Andreyev, V.A.Kan-Kalik, Ya.A.Ponomorev, C.L.Rubinshteyn, Ye.L.Yakovleva)⁵; o'quvchi shaxsining ijodiy-ijtimoiy faolligini rivojlantirish (D.B.Bogoyavlenskaya, Ye.A.Prudnikova, A.A.Smironova)⁶; ijtimoiy faollik va shaxs faoliyatining pedagogik asoslari (B.G.Ananyev, Ye.A.Anufriyev, V.F.Bexteryov, L.S.Vigotskiy, T.G.Kiseleva, V.I.Ovchinnikov, B.C.Rotenberg, V.A.Yadov)⁷ o'rganilgan.

Xorijiy tadqiqotchilardan — A.Adler, A.Maslou, T.Parsons, J.Piaje, E.Erikson, Ye.P.Torrens⁸ ijtimoiy faollik va shaxs faoliyatning pedagogik va psixologik asoslari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Yuqorida qayd etilgan olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida ijodiy-ijtimoiy faollikning ayrim jihatlari yoritilgan bo'lsa-da, bugungi kunda texnologiya fani mashg'ulotlarida o'quvchilar ijodiy-ijtimoiy faolligining shakllanganlik darajasi, mohiyati va uni maqsadli amalga oshirish metod va vositalarini qo'llashning yetarli emasligi ma'lum bo'lmoqda. Yuqorida zikr etilganlarni hisobga olgan holda texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faollikni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini o'qitish jarayonlarda samarali qo'llash uchun amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda o'quvchilarga amalda foydalanishlari uchun didaktik o'quv vositalari ishlab chiqish va pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazishning shart-sharoitlari, maqsadi, vazifalarini belgilab, tadqiqot ishini o'tkazish, texnologiya fani mashg'ulotlarida aniqlangan kamchiliklarni inobatga olish va korrektsiya qilish ishlarini olib borish zarurligini ko'rsatmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Namangan davlat

таълими ўқитувчиларини касбий шакллантиришнинг назарий – методик асослари.: Дис. ... пед. фан. докт. – Т.: 2007. – 275 б

⁵ Альтшуллер, Г.С., Шапиро Р.Б. О психологии изобретательского творчества [Текст] 1956.-№6.-С. 112-118.; Андреев, В.И. Диалектика воспитания и самовоспитания творческой личности [Текст] / - Казань : Изд-во Казан, ун-та, 1988. - 236 с.; Кан-Калик, В. А. Педагогическое творчество [Текст] / - М. : Педагогика, 1990. - 144 с.; Пономарев, Я.А. Психология творчества [Текст] / - М. : Наука. - 304 с.; Рубинштейн, С.Л. Основы общей психологии [Текст] / - М. : Знание, 1990. - 320 с.; Яковлева, Е. Л. Психология развития творческого потенциала личности [Текст] / - М. : Флинта, 1997. - 227 с.

⁶ Богоявленская, Д.Б. Интеллектуальная активность как проблема творчества [Текст] / Д.Б. Богоявленская. - Ростов-н-Д.: РТУ, 1983. -250 с.; Е.А.Прудникова. Стимулирование социально-творческой активности учащихся младших классов в системе школьного дополнительного образования. Дисс. канд. М. 2012. С.227; А.А.Смиронова. Интерактивные технологии как ресурс развития социально-творческой активности участников самодеятельного объединения. Дисс.канд. Санкт-Петербург. 2012. С.225

⁷ Ананьев, Б.Г. Психология чувственного познания [Текст] / Б.Г. Ананьев. - М. : Изд. педнаук РСФСР, 1960. - 490 с.; Ануфриев, Е.А. Социальная активность личности [Текст] / Е.А. Ануфриева. - М. : Изд-во Академии Педагогических наук, 1969. - 45 с.; Бехтерев, В.Ф. Воспитание общественной активности учащихся [Текст] : учебн. пособие / В.Ф. Бехтерев. - Красноярск, 1985. - 45 с.; Выготский, Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте [Текст] / - М. : Просвещение, 1997. - 93 с.; Киселева, Т.Г. Социально-культурная деятельность [Текст] / - М. : МГУКИ, 2004. - 539 с. Овчинников, В.И. Потребности личности как фактор ее социальной активности [Текст] / - Волгоград. - 1980. -С. 39-40.; Ротенберг, В.С., Аршавский, В.В. Поисковая активность и адаптация [Текст] / В.С. Ротенберг, В.В. Аршавский. - М. : Наука, 1984 г. - 193 с.; Ядов, В.А. Саморегуляция и прогнозирование социального поведения личности [Текст]/- Л.: Знание, 1979. - 312 с

⁸ А.Адлер. Социальный интерес: вызов человечеству. Вена.1939.; А.Маслоу. Самоактуализация. Нью-Йорк. 1966.; Парсонс Т. О структуре социального действия. – Изд. 2-е. – М.: Академический Проект, 2002 – 880с.; Ж.Пиаже. Психология интеллекта. Москва. 2003.; Э.Эриксон. Детство и общество. Санкт-Петербург. 2018.; Е.П.Торренс. Образование и творческий потенциал. Минеаполис, 1963. – с.325

universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘qituvchilarni tayyorlashda ta‘lim-tarbiya muammolari va istiqbollari” mavzusidagi ilmiy loyihasi (DITD-3) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi texnologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarning ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirish metodikasini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

texnologiya fani mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning ijodiy-ijtimoiy faolligi namoyon bo‘lishining mohiyati, mazmuni ochib berish, falsafiy, psixologik, ijtimoiy nuqtai nazardan pedagogik xususiyatlarini tahlil qilish va ijtimoiy-pedagogik zaruriyat ekanligini asoslash;

texnologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarning ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirish modelini ishlab chiqish va uni amalga oshirishning metodik shart-sharoitlarini aniqlashtirish;

texnologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarning ijodiy-ijtimoiy faolligini rivojlantirish modeli samaradorli texnologiya olamida keng qo‘llaniluvchi metodlar, komponentlar hamda tamoyillarga ko‘ra takomillashtirish;

texnologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarning ijodiy-ijtimoiy faolligini rivojlantirishga doir metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida texnologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faollikning shakllanish jarayoni belgilanib, unda Andijon, Farg‘ona, Namangan viloyatlarining umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘quvchilari respondent sifatida ishtirok etdilar.

Tadqiqotning predmetini texnologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilar ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirishning mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Psixologik, pedagogik va metodik manbalar, didaktik materiallar, o‘quv reja va dasturlar, o‘quv-me‘yoriy hujjatlar, darslik va o‘quv-metodik adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish, suhbat, kuzatish, anketa so‘rovi, test, modellash, konstruksiyalash, ekspert baholash, pedagogik tajriba, tadqiqot natijalarini matematik-statistik qayta ishlashdan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘quvchilarning ijodiy-ijtimoiy faolligi tushunchasining mohiyati, ular tomonidan amalga oshiriladigan amaliy mashg‘ulotlar jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari, bosqichlari (tayyorgarlik, ijodiy-izlanishli, ijodiy-amaliy va yakuniy) va tarkibiy tuzilmasi aniqlanib, didaktik shart-sharoitlarni modernizatsiyalashga ustuvorlik berish ijtimoiy-pedagogik zaruriyat ekanligi asoslangan;

texnologiya fani mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini ro‘yobga chiqarishga va ularning ijodiy-ijtimoiy faolliklariga ta‘sir etuvchi omillar, pedagogik imkoniyatlarni namoyon bo‘lishi ta‘lim muhitida motivatsion-yo‘naltiruvchi, intellektual, amaliy-faoliyatli va refleksiv kabi ijodiy-ijtimoiy faolligi rivojlanganligini diagnostika qilish mezonlari, taksonomik ko‘rsatkichlari va belgilangan maqsadga moslik darajalari asosida ochib berilgan;

umumiy o'rta ta'lim tizimida texnologiya fani mashg'ulotlarida o'quvchilarni ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirishga xizmat qiluvchi ikkita konseptual komponent (maqsad va nazariy metodologik asosini tashkil etuvchi) hamda amaliy-metodik ko'rsatmalar, ijodiy-ijtimoiy faolliklarini shakllantirishga yo'naltirilgan auditoriya mashg'ulotlari va mustaqil ta'limni tashkil etishning innovatsion shakl, metod va vositalari (onlayn loyihali, loyihali, muammoli, kreativ, evristik, media ta'lim metodi) hamda SMART ta'lim texnologiyalari asosida takomillashtirilgan;

texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarning ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirish klasterli modelini samarali amalga oshirish imkoniyatlari kasbiy faoliyatga tayyorlashning o'quv-uslubiy ta'minoti (ijodiy-ijtimoiy faoliyatdagi muammoli vaziyat, kasbiy yechimlar banki va a'lo, o'rta, past baholash mezonlari) takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'quvchilarning ijodiy-ijtimoiy faolligini namoyon bo'lishi orqali ular shaxsining kamol toptirish mazmuni, shakllari, vositalari, usul va metodlari tanlangan;

o'quvchilarning ijodiy-ijtimoiy faoligini shakllantirish modeli texnologiya fani mashg'ulotlari asosida takomillashtirilgan, ijodiy-ijtimoiy faollik mazmuni faollashtiruvchi imitatsion metodlarini tanlash va tadbiq etish asosida boyitilgan;

pedagogik jarayonlar o'quvchilarning o'zlari tanlagan kasblariga ongli munosabatlarini ifodalashlari uchun qulay sharoit yaratish asosida takomillashtirilgan, ijodiy-ijtimoiy faollikning shakllanganligini ifodalovchi mezon ko'rsatkichlari aniqlangan va ushbu yo'nalishdagi pedagogik jarayonni samarali tashkil etishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Texnologiya ta'limi praktikumi (Servis xizmati)" nomli o'quv qo'llanma nashr etilgan;

"Texnologiya ta'limi praktikumi" nomli elektron o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari, unga mos darajadagi metodlar va tadqiqot metodikalari majmuasining, zamonaviy matematik-statistika usullarining ishonchliligi va samaradorligi hamda empirik tadqiqot natijalarining to'g'ri talqin qilinishi bilan ta'minlangan. Ma'lumotlarni qayta ishlash matematik-statistika metodlarini samarali qo'llashni ta'minlovchi standart dasturiy vositalarda amalga oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarni ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari aniqlashtirilgan hamda pedagogik va psixologik jihatlarini o'quv dasturiga muvofiq mazmunan to'ldirilgan. Texnologiya fanini o'qitishda maktab o'quvchilarida ijodiy-ijtimoiy faollikni shakllantirish bo'yicha pedagogik imkoniyatlar zamonaviy ta'lim texnologiyalarining didaktik, metodik imkoniyatlaridan foydalanib, sinergetik yondashuvga ustivorlik berish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tajriba-sinov ishlari natijasida texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faollikni shakllantirish va bu faollikni mashg'ulotlar jarayonida namoyon bo'lishini deontologik yondashuvdan

foydalanib kuzatish orqali texnologiya fani o'qituvchilarining pedagogik faoliyatini kengaytirish imkoniyatlari o'quvchilar faoliyatiga doir komponentlariga gorizontaal va vertikal ta'sir ko'rsatish xususiyatlari hamda izchillik tamoyillariga ko'ra takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan va muammoga doir o'quv qo'llanma va mazkur ish yuzasidan maqolalar tayyorlanib, amaliyotga tadbiiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faollikni shakllantirish jarayonida olingan ilmiy natijalari asosida:

o'quvchilarning ijodiy-ijtimoiy faolligi tushunchasining mohiyati, ular tomonidan amalga oshiriladigan amaliy mashg'ulotlar jarayonining o'ziga xos xususiyatlari, bosqichlari (tayyorgarlik, ijodiy-izlanishli, ijodiy-amaliy va yakuniy) va tarkibiy tuzilmasi aniqlanib, didaktik shart-sharoitlarni modernizatsiyalashga ustuvorlik berish ijtimoiy-pedagogik zaruriyat ekanligi asoslash bo'yicha taklif va tavsiyalaridan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis huzuridagi "Nodavlat notijorat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash Jamoat fondi" tomonidan moliyalashtirilgan. Namangan viloyati "G'urumsaroy" xalq hunarmandchiligi va kasb-hunarga o'rgatish markazida 2022 yil davomida bajarilgan №73-08/97 "Yoshlar bo'lsa hunarli - hayoti bo'lar zavqli" nomli grant loyihasi doirasida foydalanilgan (Oliy Majlis huzuridagi "Nodavlat notijorat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash Jamoat fondi"ning 2022 yil №73-08/97-son ma'lumotnomasi). Natijada, umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarni ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirishning amaliy-nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish imkoni oshirilgan;

texnologiya fani mashg'ulotlarida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini ro'yobga chiqarishga va ularning ijodiy-ijtimoiy faolliklariga ta'sir etuvchi omillar, pedagogik imkoniyatlarni namoyon bo'lishi ta'lim muhitida motivatsion-yo'naltiruvchi, intellektual, amaliy-faoliyatli va refleksiv kabi ijodiy-ijtimoiy faolligi rivojlanganligini diagnostika qilish mezonlari, taksonomik ko'rsatkichlari va belgilangan maqsadga moslik darajalari asosida ochib berish bo'yicha ilmiy amaliy tavsiyalardan 2018-2019 yillarda bajarilgan KA 107/2018-2019 raqamli Namangan davlat universiteti hamda Timisoara G'arb universiteti o'rtasida tuzilgan "Erasmus+ mobility program" nomli loyihasi doirasida foydalanilgan. (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Isxoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari institutining 2023 yil 22 maydagi №9-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ijodiy-ijtimoiy faollikning shakllanishi o'quvchilar shaxsini har tomonlama rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan;

umumiy o'rta ta'lim tizimida texnologiya fani mashg'ulotlarida o'quvchilarni ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirishga xizmat qiluvchi ikkita konseptual komponent (maqsad va nazariy metodologik asosini tashkil etuvchi) hamda amaliy-metodik ko'rsatmalar, ijodiy-ijtimoiy faolliklarini shakllantirishga yo'naltirilgan auditoriya mashg'ulotlari va mustaqil ta'limni tashkil etishning innovatsion shakl, metod va vositalari (onlayn loyihali, loyihali, muammoli, kreativ, evristik, media ta'lim metodi) hamda SMART ta'lim texnologiyalari asosida takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalaridan 2022-2023 yillarda bajarilgan 02-01/33-raqamli

Xalq deputatlari Namangan viloyat Kengashi huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash Jamoat fondining "Xotin-qizlarning asosiy hayotiy qadriyatlariga erishish yo'llarining sotsiologik tadqiqi" nomli grant loyihasi doirasida natijalar olishda foydalanilgan 2023 yil 29 maydagi 11/23-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'quvchilar faoliyatiga doir komponentlariga gorizontaal va vertikal ta'sir ko'rsatish xususiyatlari hamda izchillik tamoyillariga ko'ra takomillashtirish metodikasini amaliyotga samarali joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirishga erishilgan;

texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarning ijodiy-ijtimoiy faolligini shakillantiish klasterli modelini samarali amalga oshirish imkoniyatlari kasbiy faoliyatga tayyorlashning o'quv-uslubiy ta'minoti (ijodiy-ijtimoiy faoliyatdagi muammoli vaziyat, kasbiy yechimlar banki va a'lo,o'rta, past baholash mezonlari) takomillashtirishga doir ma'lumotlar Oliy ta'limning 60112300- texnologik ta'lim bakalavriat yo'nalishi uchun "Texnologiya ta'limi praktikumi" nomli o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yilning 19 iyuldagi 233-sonli buyrug'i). Natijada texnologik ta'lim bakalavriat yo'nalishi uchun ilmiy metodologik adabiyotlar ta'minoti hamda uni mazmunan boyitishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferentsiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 24 ta ilmiy va uslubiy ishlar chop etilgan, jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma, 1 ta elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "Intellectual mulk markazi" davlat muassasasining mualliflik guvohnomasi olingan hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, shundan, 6 tasi respublika, 3 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, 8 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 117 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, ob'ekti va predmeti aniqlangan. Ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma'lumotlar kiritilgan.

Tadqiqotning birinchi bobi "**Texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faollikni rivojlantirishning ilmiy metodologik asoslari**" deb nomlangan bo'lib, texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarda ijodiy-ijtimoiy

faollikni shakllantirishning mohiyati va mazmuni, pedagogik-psixologik xususiyatlari, texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faollikni shakllantirish jarayonini amalga oshirish tamoyillari haqida bayon etilgan.

Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy jadal o'zgarishlar, erkin bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan ijodiy yondashuv ko'nikmasiga ega bo'lish, uni izchil ravishda rivojlantirib borishni taqozo etmoqda. Bu o'z o'rnida yoshlardan har bir fanni, jumladan, texnologiya fani bo'yicha ham bilim, ko'nikma va malakalarni egallash, mustaqil topshiriqlarni bajarish, turli muammolarga yechim topishda ijodiy yondashuvni izchil ravishda tarkib toptirib borishga bog'liq.

Ammo ayrim hollarda o'quvchilarining aksariyati passiv, o'quv jarayonidagi faollik darajasi past, ularning ko'pchiligida maktab tomonidan berilgan bilim hayotda foydasi yo'qligiga ishonch hosil qiladi. Darhaqiqat, ayni paytda jamiyatga uni ijodiy isloh qilish, mamlakatning intellektual salohiyatini yuksaltirishga qodir yuksak bilimli, tashabbuskor va faol yoshlar zarur. Shuning uchun ham maktab bitiruvchilari yangi ijtimoiy munosabatlarga, raqobat muhitida qiyinchiliklarni yengishga tayyor bo'lishi va ijtimoiy himoyalangan bo'lishi darkor. Va eng muhimi, bitiruvchilar o'z-o'zini rivojlantirish, uzluksiz o'zini-o'zi takomillashtirish qobiliyatiga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

Chunonchi, davlat ta'lim standartlari hamda malaka talablari asosida samarali ish olib borilmoqda. Biroq fikrimizcha, maktab o'quvchisi shaxsiga nisbatan qo'yiladigan talablarni ishlab chiqishda, pedagogik jarayonlarda va umuman ta'lim tizimida o'zining yetarli tatbiqini topishiga yo'nalgan bo'lishi zarur. Shu ma'noda, o'quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faollikni shakllantirish muammosiga yetarlicha e'tibor qaratilmaganligi hamda o'z yechimini topish zarurligi namoyon bo'lmoqda. Mazkur talablarni shaxs kasbiy va ijodiy sifatlari negizida shakllantirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bular ijodiy faoliyatning muvaffaqiyatini ta'minlovchi asosiy omil sanaladi.

Yuqoridagi mulohazalardan anglash mumkinki, bugungi kunda texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirish va ularda ijodiy qobiliyatini tarkib toptirish muhim pedagogik muammo bo'lib, bunda mazkur muammoni hal etishning boshlang'ich tayanch nuqtasi sifatida kasbga yo'naltirish ishlarini to'g'ri tashkil etish zarur.

Demak, texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirish bo'yicha yangicha qarashlarni va metodikasini ishlab chiqish, ularning nazariy ta'limdan amaliy faoliyatga o'tish davridagi dolzarb muammolarni hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Ma'lumki, so'nggi yillarda mamlakatda ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligiga erishish, maktabgacha ta'limdan to'liq ta'limgacha bo'lgan o'qitish jarayonida uzluksizlik tamoyili asosida yoshlarni ijodiy faoliyatga yo'naltirish, ijtimoiy faollashtirish hamda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallash borasida ta'lim trayektoriyasi maqsadli amalga oshirilmoqda.

Pedagogika va psixologiyaga oid ilmiy manbalarda ijodkorlik kategoriyasi bevosita faoliyat turi bilan bog'liqligi yoritilgan bo'lib, san'at, adabiyot, fan va

boshqa sohalarida yangi bosqich masalasining o'ziga xosligini ochib beradigan qobiliyat muammosi bilan uyg'unlashadi.

Taniqli olimlardan I.P.Nikitina, N.V.Kuzmina, M.G.Yarashevskiy, S.L.Rubenshteyn, L.S.Vigotskiy, S.M.Vishnyakov, Yu.N.Kulyutkin, G.Sele, S.Golovin, T.N.Kovalchuk, F.P.Yuzlikaev, M.Najmiddinova tomonidan e'tirof etilgan ijod, ijodkorlik muammolari to'g'risidagi tadqiqotlarida ijodiy izlanish ijodkorlikning eng asosiy sifatlardan biri ekanligi qayd etilgan.

V.D.Nebilitsin, M.I.Lisina, I.D.Demakova, D.B.Bogoyavlenskaya, D.Morris, I.T.Frolov, V.V.Zenkovskiylar shaxs faolligi hamda ijodiy faolligi muammosi bilan shugullanishgan va uni aniq belgilangan ijtimoiy xarakterga ega ekanligini inobatga olib, ijodiy faollik bilan bir qatorda ijtimoiy faollikni ham ko'rib chiqish muhim ahamiyatga ega ekanligini aniqlashgan.

Ijtimoiy faoliyat muammosini rivojlantirishga esa salmoqli xissalarini quyidagi olimlar qo'shganlar: E.A.Anufriev, G.S.Anufrieva, L.M.Arxaangelskiy, L.P.Bueva, V.X.Belenkiy, Yu.E.Volkov, M.S.Kogan, A.V.Klyuev, V.G.Mordkovich, M.A.Elugaev, V.L.Smirnov, L.P.Stankevich, V.A.Yadov, E.A.Yakuba, K.A.Abulxanova-Slavskaya, T.A.Ilyina, L.A.Liferov, T.N.Mal'kovskaya, M.A.Rumyantsevalar.

Ular fikricha, **ijtimoiy faollik** - bu tashabbuskorlik, maqsadga yo'naltirilgan, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan faoliyatlarda namoyon bo'ladigan, shuningdek, boshqa odamlarning manfaatlarini ko'zlab harakat qilishga tayyor bo'lgan shaxsning integratsiyalashgan sifatlaridir.

Shunday qilib, ijodiy va ijtimoiy faollikning tuzilishi va mazmunini ko'rib chiqib, o'quvchilarning ijodiy-ijtimoiy faolligi tushunchasiga quyidagi ta'rif berishimiz mumkin:

o'quvchilarning ijodiy-ijtimoiy faolligi – bu ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxs sifatleri bo'lib, u ijtimoiy ahamiyatga yo'naltirilganlik, havaskorlik, tashabbuskorlik va ijtimoiy muammolarni hal qilishda ijodkorlik bilan yondashish kabi sifatlardir.

Texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirishda amaliy faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantiribgina qolmay, balki ularning dunyoqarashi, irodasi, ijodiy fikrlash, kreativlik qobiliyatini rivojlantiradi va amaliyotda foydalanish imkoniyatini kengaytiradi. Shunga ko'ra texnologiya mashg'ulotlari uchun o'qitishning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi

Texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirishda uning jamiyatdagi o'rni, ta'lim muassasasidagi majburiyati va vazifalariga hamda individual qobiliyatlariga bog'liq bo'ladi. O'quvchining ijodiy individualligi uning individual xususiyatlari, ya'ni fikrlashning ilmiy tarkib topganligi, ishga ijodiy yondashishi, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga intilishi va boshqalarning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi.

Texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirishning reproduktiv usuli va ijodkorlikdan birini tanlashda nafaqat o'zligini, balki hayotiy maqsadlarini ham ro'yobga chiqaradi, kasbiy ahamiyatli

sifatlarini rivojlantirish imkoniyatlarini qidiradi, o'zining amaliy kontseptsiyasini ishlab chiqadi va amaliy faoliyati uchun:

1. Innovatsion yo'naltirilganlik.
2. O'z ishiga ijodkorona yondashuv.
3. Individuallik kabi xususiyatlari juda muhimdir.

Ijodkor o'quvchi o'z-o'zini rivojlantirmay, o'z ustida ishlamay turib, individuallikni ko'rsatmay, ilmiy texnik ijodkorligini rivojlantirmasdan kelgusida kasbiy faoliyatda yuqori mavqega erishish mumkin emasligini to'g'ri anglab yetadi. Shu sababli ham fanda zarur bo'lgan sifatlarni hayotiy maqsad sifatida rivojlantirmay turib, yangi texnologiyalarni egallashi mumkin emas. Aynan ushbu ikki yo'nalishni o'quvchining ijodiy individualligining ko'rsatkichi sifatida qabul qilish mumkin.

Dissertatsiyaning **“Texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilar ijodiy-ijtimoiy faolligiga oid kompetentsiyalarni rivojlantirishning shart-sharoitlari, texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faollikni shakllantirish modeli, texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faollikni shakllantirish metodikasi yoritib berilgan.

Ma'lumki, ta'limning ustuvor vazifalaridan biri bu ta'lim oluvchining milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirish, unda kelajakda jamiyatda o'z munosib o'rnini topishi uchun amaliy hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish bilan o'quvchilarning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga faol kirishishiga zamin yaratishdir. Shu nuqtai nazaridan, ta'lim-tarbiya jarayonida nafaqat o'quvchilarga fanlar bo'yicha bilim berish, balki egallagan bilim va malakalarini amalga tatbiq etish, ulardan ijtimoiy hayotda foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirish ham asosiy vazifalardan biridir.

Bu borada umumiy o'rta ta'lim Davlat ta'lim standarti hamda Malaka talablarida o'quvchilarga qo'yiladigan talablar bilan bir qatorda ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda ularning tayanch kompetentligini (kommunikativ, axborotlar bilan ishlash kompetentsiyasi, o'zini o'zi rivojlantirish kompetentsiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasi, milliy va umummadaniy kompetentsiya, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetentsiyasi) shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari, mexanizmi, metodlari hamda texnologiyalarini ishlab chiqishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Misol uchun, texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarni buyum va mahsulot turlarini, ularni tayyorlash va ishlov berish usullarini bilish, texnologik loyihalash hamda amalga oshirish kompetentsiyasi hamda psixomotor, funksional hamda amaliy faoliyat turlarini bajarishdagi operatsion kompetentsiyalariga ega bo'lishlari kerakligi malaka talablari va davlat ta'lim standartlarida belgilab qo'yilgan.

Ijodiy va ijtimoiy faollikni tadqiq qilish mustaqil ta'lim olish va ijodiy individuallikni rivojlantirish maqsadida ijodiy-ijtimoiy faollik jarayonlarini tashkil qilish va boshqarishning ijodiy jarayonni innovatsion amaliyotda modellashtirish

(aynan yaratuvchanlik faoliyatda shaxsning kreativ potentsiali rivoj topadi) bilan bog'liq maqbul shakllarini aniqlash imkonini berdi.

Bu o'rinda yuzaga keladigan murakkablik ijodiy hamkorlik faoliyatini yaxshiroq tashkil qilish hamda boshqarish bilan belgilanadi, zero, bunda ongli ijodiy individuallikning to'g'ridan-to'g'ri anglanmaydigan jarayonlari ham shakllanadi.

O'quvchilarni ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirish butun ta'lim jarayonini ta'lim oluvchiga qaratib yo'naltirishni ko'zda tutadi. Ayni shu holat kompetentsiyalar turlarini texnologiya fani bo'yicha o'quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirish asosida texnologiya fani mazmunini loyihalash muhim ahamiyatga ega.

So'ngi yillarda yosh tadqiqotchilardan G.Q.Mardiyeva⁹ ijtimoiy moslashtirish texnologiyasini takomillashtirish, H.X.Hamzayev¹⁰ o'quvchilarda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirish, D.B.Mahmudova¹¹ ijtimoiylashtirishning didaktik tizimi, X.M.Tojiboyeva¹² o'quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishni tizimlashtirish borasida tadqiqotlarni olib borishgan.

Texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, pedagogik asoslarini ishlab chiqish, psixologik-pedagogik sharoitlarini aniqlash hamda ularning o'quvchi ijodiy-ijtimoiy faolligining shakllanganlik darajasini aniqlovchi mezonlarni asoslash lozim.

Hozirgi davrda yoshlarning bilim olish motivatsiyalarini shakllantiruvchi mexanizmlarni va o'qitishning yangi shakl, noan'anaviy metodlari orqali ularning bilish jarayonlarini faollashtirish tizimini takomillashtirish, ulardagi ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirish hamda indikatorlar tizimi orqali ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqib amalga joriy etish metodlari mavjud bo'lib, aynan mana shular uzluksiz ta'lim tizimini mazmunan modernizatsiyalashni, ta'lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat bosqichiga ko'tarishga xizmat qiladigan ta'sirchan choralarni ko'rishni taqozo qiladi.

Texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faollikni shakllantirish uchun quyidagi shaxsiy sifatlar zarur: ijodkorlik, texnik fikr yuritish, o'z kuchiga ishonish, o'z mahoratini tinmay oshirib borish, jarayonlarni emotsional-qat'iylik bilan boshqara bilish, kompetentsiya yuzaga chiqishi natijalari.

Ijodiy-ijtimoiy faollikni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim shunday tashkil etilishi kerakki, o'quvchi auditoriyadagi ta'lim vaqtida ham, auditoriyadan tashqaridagi vaqtlarda ham ijodiy ish bilan mashg'ul bo'lishi va quyidagilarni bajara olishi lozim:

- muammoli vaziyatlarning yechimini topa bilish;

⁹ Мардиева Г.Қ. Педагогика олий таълим муассасаси талабаларини ижтимоий мослаштириш технологиясини такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Наманган. 2020 й.

¹⁰Хамзаев Х.Х. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларини ўқувчиларда ижтимоий фаоллик кўникмаларини шакллантиришга тайёрлаш тизимини такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Нукус. 2019 й.

¹¹Маҳмудова Д.Б. Меҳнат ва касб кўникмалари воситасида умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларини ижтимоийлаштиришнинг дидактик тизими. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Тошкент. 2019 й.

¹² Тожибоева Х.М. Ўқувчи-ёшлар ижтимоий фаоллигини оширишнинг педагогик тизими.: Пед. ф.н. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2018, -43 б

- o'z fikrini himoya qila olish va nostandart hayotiy va o'quv vazifalarni hal etishda o'zining nuqtai-nazariga ega bo'lish;

- o'qish-o'rganish va amaliy faoliyatida o'zini namoyon qilishning noan'anaviy usullarini doimiy ravishda egallab borish.

Har biri o'zining maqsadli yo'nalishiga ega bo'lgan va ta'lim jarayoni qatnashchilarining barchasi uchun rivojlantiruvchi muhitni maqbullashtirishda muhim bo'g'in bo'lib hisoblanadigan quyidagi beshta texnologiyaning baravar ishga tushirilishi orqali ta'lim muassasasi faoliyatining barcha jabhalari qamrab olinadi:

- *boshqaruv texnologiyasi* ta'lim muassasasining tizimli, maqsadli faoliyatini va ushbu muassasada faoliyat yurituvchilarning uzluksiz rivojlanishi va o'z-o'zini rivojlantirishini ta'minlaydi;

- *pedagogik texnologiya* o'quvchilarning maqsadli yo'naltirilgan o'z-o'zini rivojlantirish jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi;

- *tarbiyaviy jarayon texnologiyasi* ta'lim oluvchilarning ijtimoiy faolliklarini maqsadli ravishda rivojlantirishning uzluksizligini ta'minlaydi;

- *kasbiy texnologiya* ta'lim oluvchilarning hayotiy-ishlab chiqarish amaliyotiga mos tushadigan kasbiy ehtiyojlari –qobiliyatlari – ongliligini maqsadli ravishda uzluksiz rivojlantirishni ta'minlaydi;

- *axborot texnologiyasi* axborotni tezkor qabul qilish va qo'llashni, ta'lim muassasasi jamoasining faoliyatini jadallashtirishni ta'minlaydi.

Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish bevosita ta'lim jarayonini amalga oshiruvchi o'qituvchilarga alohida talablar qo'yadi.


Xususan, texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash samarali natija beradi. Jumladan "SMART texnologiya" ayni paytda texnologiya olamida keng qo'llaniluvchi texnologiya bo'lib, Specific (o'ziga xos), Measurable (o'lchab bo'ladigan), Attainable (dolzorb), Relevant result-oriented (tegishli natijaga yo'naltirilgan), Time framed (aniq muddatli) so'zlarining qisqartmasidan olingan. Mazkur texnologiya mashg'ulotlarni texnologiya faniga qaratilgan ma'lumotlar bazalarini, axborot tizimlarini yaratish, ulardan foydalanish, xizmatlar ko'rsatish hamda boshqa axborot tizimlari bilan integratsiyasini amalga oshiradigan texnologiya sifatida qaraladi.

Shu bilan birga, texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilar ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirish jarayoni klasterli model vositasida ham amalga oshiriladi (1-rasm).

Bunda maqsad sifatida ijtimoiy ehtiyojga texnologiya fani mashg'ulotlarida o'quvchilarning malaka talablari va kompetentli yondashuv asosida o'quvchilarning ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirish maqsadiga erishish bosh omil sifatida qaralgan.

Jarayonni tashkil etish sifatida ijodiy-ijtimoiy faoliyat funktsiyalari sifatida motivatsion, intellektual, amaliy, hissiy-irodaviy, tashkilotchilik va kommunikativ funktsiyalarning pedagog tomonidan ishlab chiqarish jarayonini boshqarish funktsiyasiga bevosita bog'liqligi hamda xizmat qilishi asoslandi. Yondashuv turlari sifatida asosan kompetentli va sinergetik yondashuvlarning texnologiya fani mashg'ulotlarida o'quvchilarni ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirish jarayoni


obyekt sifatida qaralganligi sababli faoliyatli va kreativ yondashuvlarni o'rganishni taqazo etishi hamda o'zaro bir-birini to'ldirishi ilmiy tadqiq etildi. Texnologiya fani mashg'ulotlarida o'quvchilarning ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirishning metodik asoslarida ta'lim mazmuni, shakl, metod va vositalari auditoriya va auditoriyadan tashqari vaqtlarda mustaqil faoliyat ko'rsatish bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etish bosqichlari va jarayonlari negizida tahlil qilingan. (1-rasm)



1-rasm. Texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilar ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirish klasterli modeli.

Ijodiy-ijtimoiy faollikni o'quvchilar bilim darajasi, shaxsiy sifatlari, temperamenti va ehtiyojlariga moslashgan holda axborot-kommunikatsiya hamda ta'lim texnologiyalari va metodlari asosida tashkil etish jarayonlarida o'quvchilar ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirishning to'rt bosqichdan iborat produktiv didaktik tizimini ishlab chiqdik (2-rasm). Mazkur tizimni muallif sifatida ishlab chiqishda o'quv jarayonini tashkil etishning quyidagi xususiyatlari e'tiborga olindi: ta'lim mazmunini shaxs ehtiyojlari, uning individual xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ratsional tanlab olish zaruriyati, bu boradagi mezon, metodlarni ishlab chiqish;

tashkiliy shakl va o'qitish metodlarining standartlashtirilishi hamda ta'lim individuallashtirish bilan bog'liq holatda pedagogik jarayonlarni tashkillashtirishning ko'p mehnat talab qilishi; bu boradagi muammolar yechimini ishlab chiqishda mustaqil ishlarini takomillashtirishga qaratilgan o'rgatuvchi tizimlarni joriy etilishi.



2-rasm. Texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faollikni shakllantirish to'rt bosqichli didaktik tizimi.

Texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilar ijodiy-ijtimoiy faolligini shakllantirish mexanizmlari kontekstida yuqorida zikr etilgan pedagogik imkoniyatlariga asoslangan holda “Texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faollikni shakllantirish” jarayonini takomillashtirishga xizmat qiluvchi “Texnologiya ta'limi praktikumi”¹³ nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan. Ushbu o'quv qo'llanma tarkibi texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faollikni shakllantirish uchun kasbiy hamda pedagogik kompetentlikni rivojlantirishda qo'llaniladigan didaktik vositalardan tashkil topgan, shuningdek o'quvchilarning soha bo'yicha bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashga hamda tikuv buyumlarga texnologik ishlov berishda o'ylash hamda fikrlash qobiliyatlarini o'stirishga yordam berdi.

